



## XORAZM JADID ADABIYOTIDA HURRIYAT MAVZUSI

Abdullayeva Guliston Sultanovna,  
tadqiqotchi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15207318>

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada Xorazm jadid adabiyoti vakillari Bobooxun Salimov, Inoyatullo oxund, Abdurazzoq Faqiriy, Muhammad Yusuf Chokar ijodidagi hurriyat mavzusi tarannum qilingan she'rlar tahlil etilgan. Bobooxun Salimov, Inoyatullo Oxundning she'rlari "Yug'urmiya" to'plamidan ilk marta tabdil qilinib, tadqiqot obyekti sifatida olingan.

*Kalit so'zlar:* Bobooxun Salimov, Inoyatullo oxund, Abdurazzoq Faqiriy, Muhammad Yusuf Chokar, jadid, hurriyat, mavzu.

Xorazm adabiy muhitida ham hurriyat mavzusida qator she'rlar yozildi. Jumladan, Bobooxun Salimov (1877-1929) ham hurriyatni madh etdi. Ma'lumki, Bobooxun Salimov madrasada mudarris, qozikalon, Xorazmda tashkil etilgan "Idorayi marshrutiya" raisi vazifalarida ishlagan. "Ojiz", "Bobo" taxalluslari bilan she'rlar yozgan. Bobooxun Salimovning hurriyat ulug'langan she'ri shunday boshlanadi:

Bihamdillik ochildi Xivada gulzor hurriyat,  
Jahong'a nur baxsh o'ldi, guli bexor hurriyat.  
Necha yil, ey ko'ngul, qon yig'lab ul gulrux firoqida  
Butun haq nuri etmish domin dildor hurriyat.

Shoir ushbu she'rida hurriyatning kelishini Xivada gulzor ochilishiga, jahonga nur baxsh bo'lganiga qiyos etadi. Ojiz keyingi baytlarda ham tasvirni quyuqlashtiradi. Hurriyat mazlumlarning ko'nglini shod qilishini qalamga oladi. Istibdod jabri jigarni qon etganligini, hurriyatgacha xalq bemor bo'lganligini tasvir etadi. Shoir hurriyatni shu darajada ulug'laydiki, uning vasfining mingdan birini yuz yilda ham ado etolmasligidan o'z-o'ziga murojaat qiladiki, bizdaylar buni hech fahm etolmaydi, deya afsuslanadi:

Jigarni xun etib bu zolim istibdod javridin,  
Bu kunga tegru barcha xalq edi bemor hurriyat...  
Deyolmas vasfining mingdin biri yuz yilda ham Ojiz,  
Bizingdeklar qachon fahm etguvsi miqdor hurriyat.

Hurriyat mavzusida Bobooxun Salimovning inisi Mulla Inoyatullo qozi Muhammad Salim o'g'li ham she'rlar yozdi. Uning "Hurriyat" radifli she'ri ham "Yug'urmiya" to'plamidan olingan.

# “O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



Shoir yozadi:

Bu Xorazm o‘lkasin o‘ziga maydon etti hurriyat,  
Haloyiqlarg‘a to‘g‘ri yo‘l namoyon etti hurriyat.  
G‘arib-u bevalarni qutqarib zulm-u sitamlardan,  
Hama mahbusni ozod zindon etti hurriyat.

Inoyatulla oxund hurriyat Xorazm o‘lkasini o‘ziga maydon etganidan, haloyiqqa to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatganidan shodlanadi. G‘oyoki u hamma mahbuslarni ozod etganday, deya ta‘riflaydi. Hurriyat g‘arib-u bevalarni zulm-sitamlardan qutqatganidan xursand bo‘ladi. Shoir hurriyatni shu darajada madh etadiki, muallif tasviricha, u musulmonlarga zulm etgan zolimlarni yer bilan yakson etgan, xayolda yosh, fikrda jo‘shqin o‘g‘lonlarni u izzatini joyiga qo‘ygan, johillarni esa zor-u giryon etgan:

Musulmonlarga‘a zulm etgan hama zolim kishilarni  
Yo‘qotib majmuyin yer birla yakson etti hurriyat.  
Xayolda yosh, fikrda jo‘shqin o‘g‘lonlar topib izzat,  
Vale johil kishini zor-u giryon etti hurriyat.

Bobooxun Salimov – Ojiz, Inoyatulla oxund tarannum etgan hurriyat bu 1920-yilda Xorazm Xalq Respublikasining tashkil topishidir. Shuningdek, xalq orzu qilgan ozodlikdir. Zero xalq xonlikning jabr-zulmini ko‘rdi. Qanchadan qancha aziyat chekdi. Shuningdek, Chor Rossiyasining ham mustamlakachilik siyosati jabridan ozorlandi. Shu bois ham Bobooxun, Inoyatulla oxund kabi ziyolilar, shoirlar erkni, ozodlikni, hurriyatni orzu qildilar. Uni naqadar ulug‘ ne‘mat ekanligini madh etdilar.

Toshkent adabiy muhitining yetuk vakillaridan biri, mashhur jadid To‘lagan Xo‘jamyorov – Tavallo ham hurriyat mavzusiga to‘xtalgan edi. Uning “Hurriyat haqqida tabriknoma” nomli she‘ri bor. She‘r shunday boshlanadi:

Islom eli, muborak ehsoni begarona,  
Yog‘di hirriyat ila nuri Xudo jahona.  
Har kim musharraf o‘ldi, shod ila bayram etti,  
Bir necha “alvido”lab ketti bo‘lub, xazona.

Darhaqiqat, Tavallo hurriyatni Allohning cheksiz, chegarasiz ehsoni deb ataydi. Hurriyat bilan jahonga Xudoning nuri yog‘di, deya sharaflaydi. Ko‘rinadiki, ko‘pchilik jadidlar qatori Tavallo ham hurriyatni shod-xurramlik bilan kutib olgan. She‘rning keyingi misralarida ham hurriyatni olqishlaydi. Uning yurtdoshlariga xursandchiliklar, yangilanishlar olib kelishiga ishonadi. Hatto she‘r yakunida o‘z-o‘ziga murojaat qilar ekan, “Yoz milliy tinmay aslo, qo‘y, tashla oshiqona” deya

**“O‘ZBEK FILOLOGIYASI:  
MUAMMO VA YECHIMLAR”  
mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani**



faqat milliy she'rlar yozishga ahd qiladi. Tavalloning ijodini kuzatib, shoir yozganiga amal qilgani oydinlashadi. Uning she'riyatida milliy ruh, milliy o'zlik, istiqloq, vatanparvarlik mavzusi birinchi o'rinda turishi ko'zga tashlanadi.

Xorazmlik jadidlar ham hurriyat mavzusiga asosiy mavzu sifatida qarashgan. Ular ham yurt istiqboli va taraqqiyotini har nedan ustun qo'yishga intilganlar. Jumladan Abdurazzoq Faqiriy ham hurriyatni olqishlagan. Shoir shunday yozadi:

Xaloyiq boshidin daf' ayladi shundoq musibatni,  
Adolat nuri baxsh etdi hazin dillarga hurriyat.  
Berandi hurriyatni mustabid Asfandiyar ham,  
Qachon bo'lg'ay anga tengdosh bizim bu asl hurriyat.  
Faqiriy, emdi yig' sen ham bu mahzun nag'ma-sozingni,  
Yangidan soz etib she'ring, degil madhini hurriyat.

Faqiriy tasviricha, hurriyat musibatni daf' etuvchi, mahzun yuraklarga adolat nurini baxsh quluvchidir. Yuqorida ham ta'kidlaganimizday, xorazmlik jadidlar madh etgan hurriyat bu – 1920-yilda xonlikning tugatilib, Xorazm Xalq Respublikasining tashkil topishi bilan bog'liq, shoirning mustabid Asfandiyor ham bergandi hurriyat, deyishi xonning 1917-yilda “Yosh xivaliklar”ning harakatlaridan qo'rqib, “Idorayi marshrutiya” tuzilishiga rozi bo'lganiga ishoradir. 1920-yildagi davlat to'ntarishini xorazmlik jadidlar hurriyat deb atadilar. Respublika tuzilishida tashabbuskor bo'lgan, uning boshqaruvida ishtirok etgan ko'plab jadidlar yangi tuzilgan davlatning iqtisodiy, ijtimoiy rivojlanishini istadilar. Jahonning ilg'or mamlakatlari qatorida bo'lishini niyat qildilar. Badiiy ijod bilan shug'ullangan jadidlar o'z she'rlari bilan bu yangiliklarni olqishladilar. Yangi-yangi o'zgarishlarga ilhom baxsh etuvchi bo'ldilar. Biroq sovet hukumati bunga imkon bermadi.

Muhammad Yusuf Chokar ham hurriyatni ko'klarga ko'tardi. Hurriyatni jonning rohati deb atadi. Uning qadrini bilishga, tashakkurlar aytishga chorladi. Zolim mustabidlar zulmidan xalos qilganligini, mahbusxonadan bog'-u bo'stonga olib chiqqanini xushnudlik bilan she'rga soldi:

Biling qadrin tashakkur birla rohat jona hurriyat,  
Basharlikda munosib bo'lmoq har, insona hurriyat.  
Xalos aylab bu zolim mustabidlar zulmi bandidin,  
Bizni o'tkardi mahbusxonadin bo'stona hurriyat.  
Qachonga tegri yurgung mustabidlardin bo'lub xavf,  
Alardin qo'rqmayin ko'ngul mardona hurriyat.

**“O‘ZBEK FILOLOGIYASI:  
MUAMMO VA YECHIMLAR”  
mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani**



Xorazmlik jadid shoirlar o‘z she‘rlarida “mustabid” so‘zini juda ko‘p qo‘llaganlar. Ular bu so‘zni xon va beklar, amaldorlar, ba‘zi mutaassib din vakillariga nisbatan ishlatganlar. Darhaqiqat, xalqni g‘aflat uyqusiga botishida, yurtni taraqqiyotdan uzilishida mustabidlarning o‘rni katta edi. Shu sabab ham shoirlar ularni tanqid tig‘i ostiga oldilar. O‘rni kelganda ularning asl basharalarini ochib tashladilar.

Chokar g‘azalni davom ettirar ekan, hurriyat uchun jon fido qilganlarni e‘tirof etadi, ularning sa‘y-harakatlari evaziga hurriyat maydonga kelganligini qalamga oladi:

Bu hurriyatg‘a barcha qahramonlar jon fido qildi,  
Alardin keldi biz zulm ostida qolg‘ona hurriyat.  
Yo‘q emdi bir-birovg‘a zo‘rliq avvalgidek hargiz,  
Keturdi mustabidlar xaylini afg‘ona hurriyat.

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, shoir Muhammad Yusuf Chokar hurriyat mavzusida mahorat bilan ijod etgan. Mavzu ifodasida boshqa shoirlar qalamga olmagan jihatlarni ham ko‘rsatishga harakat qilgan. Xullas, XX asr boshlari Xorazm adabiy muhitida ham hurriyat, erk, ozodlik asosiy mavzulardan bo‘ldi. Vohalik jadidlar hurriyatni chin dildan madh qildilar. Yurt ozod bo‘lishini istadilar. Ular iqtisodiy taraqqiyotni ham orzuladilar. Bu mavzuda badiiy teran she‘rlar yozdilar.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Yug‘urmiya. To‘plam. Toshbosma. O‘zFASHI, 18057-tartib raqami. -B.14.
2. Tavallo. Millat sadosi. -Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015.
3. O‘zbek adabiyoti. To‘rt tomlikka ilova. Beshinchi tom. Ikkinchi kitob. -Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1968. -266 b.